



BOLALAR NUTQINI O'STIRISHNING MUHIM AHAMIYATI, VAZIFASI HAMDA UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Mingqobilova Zarnigor Abdusamad qizi

Termiz Davlat universitetining Pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola bolalar nutqini o'stirishning muhim ahamiyati, uning vazifasi hamda rivojlantirish yo'llari, usullari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Pedagog o'qituvchilar, tarbiyachilar hamda ushbu mavzu bo'yicha izlanish olib borayotganlarga ushbu maqolada foydali malumotlar keltirilgan.


Kalit so'zlar: nutq, til, og'zaki nutq, yozma nutq, lug'at, omonimlar, sinonimlar, ko'p ma'nolilik, ertaklar, she'rkar, mashg'ulotlar, tashqi va ichki nutq.

"Til - shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir.

Agar nutq nama'qbul bo'lib chiqsa - tilning ofatidir."

(Alisher Navoiy)

Nutq - bu tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilinadigan, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli. Nutq deganda uning og'zaki va yozma ravishda namoyon bo'lishidagi jarayonlar, ya'ni so'zlash jarayoni va uning natijasi tushuniladi. Nutq - bu insonning eng oliy, murakkab, ruhiy vazifalardan biri hisoblanadi. Nutq ichki va tashqi ko'rinishiga ega. Ichki nutq odamning o'z ichiga gapiradigan passiv nutqi sanaladi. Shuning uchun bu nutq o'z-o'ziga qaratiladi, uni nazorat qilib bo'lmaydi. Ichki nutq og'zaki va yozma nutqning asosi sifatida xizmat qiladi. Tashqi nutq boshqalarga qaratilgan va nazorat qilish mumkin bo'lgan faol nutq bo'lib, u og'zaki va yozma ko'rinishga ega. Til hayotimizning ajralmas qismi hisoblanadi, shunday ekan bola go'dakligidanoq undan bir dona so'z aytishini kutish, uni gapirishga o'rgatish so'ngra uni maroq bilan tinglash barcha insonlar uchun xosdir. Odatta bolalarning faol nutqi 2 - 2,5 yoshlarda chiqa boshlaydi. Bu davrda bolaning kattalar bilan amaliy hamkorligiga oid vaziyatlarda faol nutqdan foydalanish nutq shakllanishiga olib keladi.






Dastlabki yosh bosqichlarida bola nutqini rivojlantirishga e'tibor berishning ahamiyati shundan iboratki, ushbu davrda bola miyasi tez sur'atda o'sib boradi va uning vazifalari shakllanadi. Fiziologlarning ta'kidlashicha, markaziy asab tizimi vazifalarini aynan ularning tabiiy shakllanish davrida osongina mashq qildirish mumkin. Mashqlarsiz ushbu vazifalarning rivojlanishi sekinlashadi va hatto umuman to'xtab ham qolishi mumkin. Nutqni rivojlantirish uchun dastlabki uch yil bola hayotining muhim hal qiluvchi davri hisoblanadi. Agarda dastlabki uch yilda bola nutqiga yetarlicha e'tibor berilmagan bo'lsa, bu holda kelgusida uning o'rnini to'ldirish uchun juda ko'p mehnat qilishga to'g'ri keladi. Barcha bolalar yillar davomida o'sar ekan turli davrlarda ularning nutq shakllanishi har xil kechadi. Bolalar oiladan keyin maktabgacha ta'lif, boshlang'ich ta'lif, oliv ta'lif hamda undan keyingi bosqichlarda ta'lif oladilar. Eng muhimi bolalar oiladan ajralgandan so'ng ularning ilk qadamlari ko'p vaqtarda pedagoglar nazoratida ularning ta'lif va tarbiyalari vositasida shakllanadi, o'sib boradi. Ularning aqliy faoliyatları, ruhiy holatlari shu bilan bir qatorda nutqiy rivojlanishlari ham ushbu davrda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Nutqiy rivojlanishning ilk bosqichida bolalar kattalar bilan muloqotda tashabburkor bo'lishadi, ko'p narsalarni so'rashadi **nega?** **nima uchun?** degan savollar yog'dirishadi, turli o'yinlar, suratlar bo'yicha kichik hikoyalar tuzishadi. Biroq nisbatan sust bolalar kattalar bilan muloqot jarayonida tashabbus ko'rsatmaydilar, bunday bolalar muloqotning so'zsiz vositalaridan foydalanadilar.

Odatdagi bolalar hamda ushbu turdagи bolalar bilan ishslash uchun esa quyidagi vazifalarni bajarish zarur bo'ladi:

- bolalarni buyumlar, ularning harakatlari, o'yinchoqlar, mevalar hamda ularning ranglari, sifatlarini belgilash uchun so'zlardan foydalanishga undash;
- ularning lug'at boyliklarini turli o'simliklar, oziq - ovqatlar, uy hayvonlari va hokazolar bilan boyitib borish;
- dars jarayonida bolalar bilan harakatli o'yinlar o'tkazilganda harakatlarni ifodalovchi so'z va jumlalardan foydalanish.

Kichik yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirishga oid vazifalarning asosini bolalarning lug'at boyligini oshirish ustida ishslash, bu borada bolalarni narsa - buyumlarning yangi nomlari, ularning sifati, umumlashtiruvchi nomlari bilan tanishtirish, qarama - qarshi ma'noli so'zlardan foydalanishga undash va shu asosda 3 - 4 ta gap tuzish va uni mulohaza qilishga chaqirish tashkil etadi.

Lug'atni rivojlantirishda esa uni antonimlar, sinonimlar, ko'p ma'nolik kabi shakllaridan nutqda faol foydalanish bolalarning so'zlar ma'nolarini chuqr anglashlariga imkon yaratadi. Bolalarning narsalar, insonlarning xatti - harakatlari, tabiat hodisalarini tasvirlash, taqqoslash, qiyoslash kabi vaziyatlarida so'zlarning yuqorida aytib o'tilgan sinonimlar, antonimlar, ko'p ma'nolik kabi shakllardan bevosita foydalanishga undashi tabiiy. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini faol nutqqa o'tkazishda ularga turli mavzulardagi she'rlarni yod oldirish, ular ustida suhabtlar o'tlazish bolalarning tasavvurlarini kengaytiradi ayniqsa o'z vatanimizni aks ettiruvchi





she'rlardan foydalanish esa bolalarning vatanparvarlik hissini rivojlantirishga ko'mak beradi.



Dars mobaynida bolalar bilan dastlab so'zlar ustida keyinchalik gap, qo'shma gaplar tuzishga doir mashg'ulotlar o'tkazish mumkin. Ushbu mashg'ulotlarni suratlar bilan quyidagicha tashkil etish mumkin: syujeti bir-biriga yaqin bo'lgan ikkita rasm tanlab olinadi. Misol tariqasida gulga suv quyayotgan bola va salqinda uqlab yotgan bola suratlarini olishimiz mumkin. O'qituvchi yordamida bolalar quyidagicha gaplarni tuzishlari mumkin: "Bu bola gulga suv quyayapdi, ammo narigi bola uqlab yotibdi" yoki ismlardan foydalanishlari mumkin "Bobur gullarni sug'oryapdi, Botir esa salqinda dam olyapdi" . Bu kabi o'yinlar bolalarning tassavur qilish qobiliyatlarini rivojlantirib qolmay shu asnoda gap tuzish yoki fikr bildirish kabi ko'nikmalarini ham shallanishiga yordam beradi.

Kichik yoshdagи bolalarga o'qib beriladigan asarlar doirasini asosan folklor asarlari tashkil qiladi. Ular kichik yoshdagи bolalar ehtiyojiga to'liq javob beradi: chunki undagi ohang, musiqa va harakatlar bolalarga xos bo'ladi. O'qish darslarida bolalarga hikoya va ertaklarni ifodali o'qib berish va ushbu hikoya haqidagi fikrlarini so'rash kabi metodlar ham asqotadi. Agarda ertak unchalik katta bo'lmasa uni ikki yoki uch martta hikoya qilish yoki bo'lmasa qiziqarli joylarini takrorlash mumkin. Uni aytib bo'lgandan so'ng bolalardan ushbu vaziyat vujudga kelganda sizlar nima qilgan bo'lar edingiz kabi savollar bilan murojaat qilishimiz mumkin. Shuningdek ushbu ertaklar asosida kichik sahna ko'rinishlari tashkil etish ham bolalarga yuqoriga kayfiyat bag'ishlaydi hamda ulardagi ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda nutq hayotimizning ajralmas qismi hisoblanadi, biz uni rivojlantirishimiz, doimo shakllantirib borishimiz lozim. Nutqni rivojlantirish – bolaning individual psixik rivojlanishida markaziy o'rinn tutuvchi ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirishining murakkab, ko'p omilli jarayonidir. Buyuk mutafakkirlarimiz ham nutq, so'z hamda til haqida ko'plab izlanishlar olib borganlar. A. Navoiy so'z, nutq





va ularning inson hayotidagi ahamiyatini obrazlar orqali yuqori badiiy shaklda ifodalagan. Y.A.Komenskiy esa tabiiy qobiliyatni har tomonlama rivojlantirish g'oyasidan kelib chiqqan holda ilk yoshdan boshlab bolalarga bilishni, harakat qilishni, so'zlashni o'rgatish kabi vazifalarni qo'ygan. U «aql va nutq»ni rivojlantirish haqida bir xil qayg'urish darkor, deb hisoblagan. Chunki, bola nutq tufayli o'z fikrlarini ifodalaydi, nutqni egallab olish orqali u atrof-olamni anglaydi, boshqa bolalar bilan muloqot qilish natijasida esa bolada nutq va fikrlash rivojlanadi. Shunday ekan biz bolalarning nutq madaniyatiga, uning rivojlanishiga hamda to'g'ri , aniq va ifodali bo'lib shakllanishiga katta e'tibor qaratishimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

°<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Nutq>

°<https://hozir.org/d-r-babayeva.html?page=4>

°"BOLALAR NUTQINI O'STIRISH" D. R. Babayeva "Barkamol fayz media" 2018,-
432b

°" Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi" F.R Qodirova, R.M
Qodirova Toshkent "Istiqlol" 2006

°<https://pin.it/17YKXTy>

